



EKOLOGIYA MUAMMOLARI: O‘ZBEKISTONDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH YO‘LLARI

Ibrohimova Xusnidaxon Ilhom qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Orol dengizi halokati, suv tanqisligi, cho‘llanish darajasining ortishi, tuproqning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi - bular Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda uchraydigan ekologik muammolar. Lekin, bu muammolar ichida inson hayoti uchun eng xavfli bo‘lgani bu changlanish darajasining ortishidir. Bundan mingyillar avval, ulug' bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino "Agar chang bo'lmaganda edi, odamzot 1000 yil umr ko'rar edi" deb ta'kidlagan edi. Markaziy Osiyo hududi ekologik o‘zgarishlarga sezgir va nozik hisoblanadi. Shundoq ham, tabiiy joylashuvi jihatdan dengizdan uzoqda joylashgan va changish darajasi yuqori bo'lgan O‘zbekistonni bugungi kunda yashil hududlarning qisqartirilishi va tartibsizliklarning qurilishlar, sanoat zonalaridan chiqayotgan zaharli moddalar mamlakat havosini ifloslantirishga o‘z hissasini qo‘shyabdi.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, atrof-muhit, ifloslanish, changlanish, shahar o‘rmoni, elektrostatik havo tozalagichilar, yashil infratuzilma

Abstract: The destruction of the Aral Sea, water scarcity, increasing desertification, soil pollution and loss of biodiversity - these are the environmental problems encountered in Central Asia, in particular in Uzbekistan. However, the most dangerous of these problems for human life is the increase in the level of pollution. Thousands of years ago, our great ancestor Abu Ali ibn Sino noted that "If there were no dust, humanity would live 1000 years." The territory of Central Asia is considered sensitive and fragile to environmental changes. Uzbekistan, which is naturally located far from the sea and has a high level of pollution, today is faced with the reduction of green areas and the release of toxic substances from construction and industrial zones, which contribute to the pollution of the country's air.



Keywords: Ecology, environment pollution, emissions, urban forest, electrostatic air purifiers, green infrastructure

Аннотация: Высыхание Аральского моря, нехватка воды, растущее опустынивание, загрязнение почв и утрата биоразнообразия — вот экологические проблемы, с которыми сталкивается Центральная Азия и Узбекистан в частности. Однако среди этих проблем наиболее опасной для жизни человека является рост уровня загрязнения. Тысячи лет назад наш великий предок Абу Али ибн Сина сказал: «Если бы не было пыли, человек жил бы 1000 лет». Центральноазиатский регион чувствителен и уязвим к изменениям окружающей среды. Однако в Узбекистане, который естественным образом расположен вдали от моря и имеет высокий уровень загрязнения, в настоящее время наблюдается сокращение зеленых зон и выбросы токсичных веществ со строительных площадок и промышленных зон, которые способствуют загрязнению воздуха в стране.

Ключевые слова: Экология, окружающая среда, загрязнение, пыль, городской лес, электростатические очистители воздуха, зеленая инфраструктура

Yuzlab yillar davom etgan texnologik inqilob va jadal rivojlanishdan so'ng insoniyat tabiat bilan munosabatlarda inqiroz davriga yetib keldi. Har qanday davlatning yuksak madaniyati-yu, gullab-yashnayotgan iqtisodiy yutuqlari unchalik ahamiyat kasb etmay qoladi, agar davlatning atrof-muhiti toza bo'lmasa. Misol tariqasida, iqtisodiy o'sishning muntazam yuqoriligiga qaramasdan, XXI asr boshlariga kelib, Xitoy bir qator jiddiy ekologik muammolarga duch keldi. Ekologik sof muhitni yaratish Xitoy hukumatini oldida turgan XXI asrning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Yurtimiz O'zbekistonda ham vaziyat ancha yomonlashayotgani



hech kimga sir emas. So'nggi paytlarda O'zbekiston bu masalada butun dunyoda lider, peshqadam. Lekin bu "lider"lik bizga faqat zarar keltiradi.

Butun dunyo bo'ylab havo sifatini monitoring qiluvchi AQIning ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz poytaxti - Toshkent havosi eng iflos bo'lgan shaharlar top uchtaligidan joy olishga ulgurgan. AQI havoni beshta asosiy zaharlovchiga ko'ra aniqlaydi. Bular azod dioksidi, iz gazi, yer darajasidagi azon, katta va mayda qattiq zarralar va sulfid gazlari. Bu reyting bo'yicha havo tozaligini 151 indeksdan ohsa bu barcha uchun birdek o'ta zaharli. Agar indeks 301 dan o'tsa bu favqulodda vaziyat. Buni ekologlar kimyoviy zavodlardagi avariyalarga tenglashtirishadi. Bundan tashqari, Jahon bankining hisobotlariga ko'ra, Toshkent havosidagi PM2.5 kontsentratsiyasi qish oylarida eng yuqori ko'rsatkichlarda chiqadi va xalqaro havo sifati standartlaridan sezilarli darajada oshadi. Toshkent shahrida PM2.5 ning o'rtacha yillik kontsentratsiyasi JSST tavsiya qilgan yillik o'rtacha 5 mkg/m³ darajasidan olti baravar yuqori. Qo'shimchasiga, so'nggi yillarda Toshkent shahrida havo tarkibidagi ozon, oltingugurt dioksidi va ftorid vodorodining miqdori biroz oshdi. Bu kabi holatlar poytaxt aglomeratsiyasi va aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va Toshkent viloyatining sanoat markazlarida (Olmaliq, Chirchiq, Angren, Ohangaron va boshqalar) onalar va chaqaloqlar o'limi respublikaning boshqa viloyatlaridan bir necha barobar yuqori. Achinarlisi, ushbu o'limning sabablari o'smalar, yurak xurujlari, qon-tomir, asab, ruhiy kasalliklar, nafas yo'llari kasalliklari kabi og'ir dardlar hisoblanadi.. Shuningdek, havoning ifloslanishi Toshkentda har yili taxminan 3000 kishining bevaqt o'limiga olib kelishi va aholi farovonligiga salbiy ta'siri esa yiliga 488,4 million AQSh dollarini tashkil etishi mumkin. Bu ham yetmagandek, Toshkent shahridagi havo sifati bo'yicha ma'lumotlar va tadqiqotlar cheklangan. O'tgan yili



ekologlardan biri Toshkentdagi havo sifati bo'yicha vaziyatni Ukrainaning Chernobil shahridagi atom avariya bilan tenglashtirgan edi. Shu sababli ham Toshkent shahridagi havo sifatini har tomonlama tahlil qilish va bu muammon har tomonlamai hal qilish zarurati tug'iladi.

Avvalo ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonda havo sifatini yaxshilash bo'yicha bir nechta islohotlar amalga oshirilyabdi. Masalan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 19-sentyabrda 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy dasturini taqdim etdi. Dasturda "Yevro-4" standartidan past toifadagi yoqilg'ini sotish va undan foydalanishni bosqichma-bosqich to'liq taqiqlash nazarda tutilgan. Buning uchun Buxoro va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari yuqori sifatli yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha modernizatsiya qilinadi. Xususan, Toshkent shahridagi ahvolni yaxshilash uchun esa, 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha turdagi qurilish ob'ektlarini qurishga moratoriy e'lon qilindi. Shuningdek, avtomobillarni davlat raqamiga mos ravishda "toq va juft" kunlarda boshqarish qoidasini joriy etish, sun'iy suv havzalarini barpo etish va atmosfera havosining sifat ko'rsatkichini doimiy e'lon qilib boradigan tablo va monitorlar o'rnatish rejalashtirilgan. Oxirgisi lekin eng muhimi, 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi barcha islohotlarning debochasi bo'ldi. Shunga qaramay, poytaxtimizdagi ahvol kundan-kun yomonlashib borar ekan, vaziyat bizdan yana ham ko'proq harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bunda rivojlangan va o'z sa'y-harakatlari bilan yashil muhitni yarata olgan davlatlarning tajribalariga tayanish bu muammoni bartaraf qilishning samarali usullaridan hisoblanadi. Quyida bit nechta mamlakat miqyosida ko'rib chiqamiz. Birinchisi, shahar yashil hududlarini kengaytirish. Bunda Singapur o'zining "Shahar o'rmoni" yondashuvini amalga oshirgan va shaharda yashil hududlarni ko'paytirish orqali havo sifatini yaxshilashga erishgan. Bu yondashuv, ko'plab daraxtlar va o'simliklar o'rnatish bilan birga, shahar ichidagi



havo sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Yondashuv o'z oldiga qo'ygan maqsadlari - kamida 1 million daraxt ekish, 2025-yilga kelib quyosh energiyasini to'rt barobar oshirish. 2030 yilgacha poligonga yuboriladigan chiqindilarni 30 foizga qisqartirish, 2030 yilga kelib maktablarning kamida 20 foizi uglerodan xolis bo'lishi kerak va yangi ro'yxatdan o'tgan barcha avtomobillar 2030 yildan boshlab toza energiyaga ega modellarga aylanadi. Ikkinchisi, elektrostatik havo tozalagichlardir. Ular dunyoning bir qancha davlatlarida havo tozaligini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Masalan, AQSHda sanoat sohasida havoni tozalash uchun qo'llaniladi. Yaponiyada, shuningdek, elektrostatik havo tozalagichlari ko'plab ofislar va uylar uchun keng qo'llaniladi, bu havo sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Uchinchisi, yashil infratuzilma va aqlli shahar rejalashtirish hisoblanadi. Berlin va boshqa Germaniya shaharlarida aqlli shahar rejalashtirish texnologiyalari va yashil infratuzilma konseptlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. Masalan, yong'irni to'plash tizimlari va elektr transport vositalarini kengaytirish orqali havo sifati yaxshilangan. Yana, Kopenhagen dunyodagi eng yashil va aqlli shaharlaridan biri sifatida tanilgan. Shahar aqlli transport tizimlari va energiya samarali infratuzilma orqali havo ifloslanishini kamaytiradi.¹²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekologik muammo XXI asrning 50-yillariga qadar O'zbekiston hal qilishi kerak bo'lgan eng muhimi sanaladi. Chunki, bizga omonat qilib berilgan jannatmakon yurtimizni asrab-avaylash, uni sof holda kelajak avlodga yetkazish asosiy burchimizdir. Bunda yuqorida ta'kidlab o'tganimiz hukumat tomonidan qilinayotgan va qilinishi kutilayotgan islohotlar va sa'y-harakatlar muhim ro'l o'ynaydi, albatta. Biroq, buning o'zi kamlik qiladi. Biz kelajak avlodni tabiatga g'amxo'r, uning taqdiri haqida qayg'uradigan insonlar qilib tarbiyalab yetkazishimiz lozim. Nafaqat ularga buni uqtirishimiz, avvalo, o'zimizda ana shunday dunyoqarashning shakllantirishimiz, o'zimizni isloh qilishimiz kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Formal site of Air quality in the world // <https://www.iqair.com/uzbekistan/toshkent-shahri/tashkent>
2. Air Quality Assessment for Tashkent and the Roadmap for Air Quality Management Improvement in Uzbekistan. The World Bank group. 2024 // <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/air-quality-assessment-for-tashkent>
3. Komilova Nilufar, Ds., associated professor, Department of Geography National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek. ECOLOGICAL SITUATION OF TASHKENT REGION AND ITS IMPACT ON PUBLIC HEALTH. P-57-59 // <https://cyberleninka.ru/article/n/ecological-situation-of-tashkent-region-and-its-impact-on-public-health/viewer>
4. Formal site of International Atomic Energy Agency // <https://www.iaea.org/newscenter/focus/chernobyl/faqs>
5. Abduqahhor K. Prezident matbuot xizmati. **Prezident Toshkentda chang bo'ronlariga qarshi kurashish va havo sifatini yaxshilash chora-tadbirlari bilan tanishdi** // https://www.gazeta.uz/oz/2024/09/19/ecology/?utm_source
6. **Toshkent shahri havosini nimalar ifloslayapti va uni qanday yaxshilash mumkin? . 2024.** // https://kun.uz/news/2024/01/04/toshkent-shahri-havosini-nimalar-ifloslayapti-va-uni-qanday-yaxshilash-mumkin-ozgidromet-tahlillarini-elon-qildi?utm_source
7. 2024 Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki/Jahon banki.1818 H street NW Washington DC 20433. TOSHKENT SHAHRIDA HAVO SIFATINI BAHOLASH. 2024 // https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/178ce294-c828-4b5b-b966-e5268ceb3d13/download?utm_source